

FA prezidenti B.Yuldashev hamda vitse-prezident S.Mirzayev Qoraqalpog'istonda

Fanlar akademiyasi prezidenti B.Yuldashev hamda vitse-prezident S.Mirzayev FA Qoraqalpog'iston bo'limiga tashrif buyurdi hamda Bo'lim jamoasi bilan uchrashuv o'tkazdi.



Unda FA Qoraqalpog'iston bo'limida olib borilayotgan ilmiy ishlarga, shuningdek, yosh ilmiy kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida to'xtalib o'tildi.

Shundan so'ng FA prezidenti yoshlar bilan alohida muloqot o'tkazdi. Unda Bo'limda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, ularni qiynayotgan masalalarga to'xtaldi va yosh tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari, takliflarini eshitdi.